



Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 8-dekabr, № 254-257 (9152)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI



Qadri vatandoshlar!

Siz, azizlarni, ko'p millatli butun xalqimizni 8-dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etib, barchangizga o'zimgin chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Ushbu qutlug' ayyomda barcha huquq va erkinliklarimiz, yurtimizdagi tinchlik va barqarorlik, birlik va hamjihatlik, ortga qaytmas demokratik islohotlarimiz kafolati bo'lgan Asosiy Qonunimizning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini yanada chuqur his etmoqdamiz.

Hech shubhasiz, xalqimiz siyosiy-huquqiy

tafakkuri hamda yuksak xohish-irodasining ifodasi bo'lgan Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yilgan qoida va tamoyillar Yangi O'zbekistonda barpo etishda barchamiz uchun beqiyos kuch-g'ayrat, ishonch va ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Bu haqda so'z yuritganda, avvalo, yanada keng vakolat va mas'uliyatga ega bo'lgan milliy parlamentimiz hamda ilk marta mahalliy Kengashlar deputatlari orasidan saylangan raislar boshchilik qilayotgan viloyat Kengashlari, jamiyat boshqaruvida o'rni va nufuzi tobora ortib borayotgan mahalla instituti faoliyati misolida

xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekani haqidagi konstitutsiyaviy qoidaning amaliy tasdig'ini ko'ramiz.

Ayniqsa, yangi parlamentimiz tomonidan joriy yilda sudlar faoliyati hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirishga oid qonunlar hamda yurtimizda do'stlik, hamjihatlik muhitini mustahkamlash, inklyuziv jamiyat, yoshlar, xotin-qizlar masalalari, kam ta'minlangan insonlar manfaatlarini himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash bo'yicha ko'plab muhim qarorlar qabul qilinganini ta'kidlash lozim.

Mahalliy Kengashlar ham o'z hududlaridagi dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha faol ish olib bormoqda. Ular tomonidan o'tgan davrda 25 mingdan ziyod masalalar muhokama qilinib, tegishli qarorlar qabul qilingani, mansabdor shaxslarga 14 mingga yaqin deputatlik so'rovlari yuborilgani ham shundan dalolat beradi.

Vakillik organlarini chinakam xalq minbari, xalq ovoziiga aylantirishga qaratilgan islohotlarimizning davomi sifatida 2026-yilning 1-yanvardan tuman va shaharlarda ham hokim va Kengash raislari vazifalarini alohida ajratish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiramiz.

Bir so'z bilan aytganda, xalq hokimiyatchiligi, vakillik demokratiyasi, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi kabi konstitutsiyaviy prinsiplarga bundan buyon ham sodiq qolib, ushbu yo'nalishdagi islohotlarimizni yanada qat'iy davom ettiramiz.

Hurmatli do'stlar!

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda inson qadri, aholining huquq va manfaatlarini ta'minlash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. **“Konstitutsiya – inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi!”** degan ezgu g'oya asosida o'tkazilayotgan bu yilgi bayram tadbirlari orqali shu yo'lda erishgan yutuqlarimiz chuqur tahlil qilinib, yangi va dolzarb vazifalar belgilab olinmoqda.

Keyingi vaqtda barcha soha va tarmoqlarda qo'lga kiritayotgan natijalarimizga shu nuqtayi nazardan baho berar ekanmiz, ularning zahirida, eng avvalo, insonparvarlik va xalqparvarlik tamoyillari mujassam ekanini va ular o'z samarasini berayotganini alohida qayd etish o'rindir. Misollarga murojaat qiladigan bo'lsak, joriy yilda aholi jon boshiga daromad 3 ming 500 dollarni tashkil etgani, maktabgacha ta'limda qamrov 78 foiz, oliy ta'limda esa 42 foizga yetgani, odamlarimizning o'rta umr ko'rish darajasi 73,8 yoshdan 75,1 yoshga uzaygani va boshqa raqamlarni keltirish mumkin.

Konstitutsiyamizga asosan davlat zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy majburiyatlarni bajarish hamda yurtimizda ijtimoiy davlat barpo etish borasida ham ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 1 million nafardan ziyod fuqaro kambag'allikdan chiqarilib, kambag'allik darajasi 6,6 foizga tushirildi.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, xalqimiz uchun munosib turmush darajasini ta'minlash,

mustahkam huquqiy tizim va ochiq jamiyat barpo etish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlarimiz dunyo jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilmoqda.

Masalan, 2025-yilda Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksida O'zbekiston 19 pog'ona yuqori ko'tarilib, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida eng jadal rivojlanayotgan mamlakat sifatida qayd etildi. Global innovatsiya indeksida yurtimiz Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari bo'yicha kuchli uchlikdan joy oldi. “S&P”, “Fitch” va “Moody's” kabi nufuzli xalqaro agentliklar tomonidan O'zbekistonning suveren kredit reytingi oshirildi.

Nufuzli xalqaro anjuman – YUNESKO Bosh konferensiyasi so'nggi 40 yil davomida birinchi marta Parijdan tashqarida, ya'ni Samarqandda muvaffaqiyatli o'tkazilgani ham jahon hamjamiyati tomonidan muhim voqea sifatida e'tirof etilmoqda.

Aziz va muhtaram yurtdoshlar!

Islohotlarimiz hal qiluvchi bosqichga kirayotgan bugungi kunda biz Konstitutsiyamizning har bir normasini davlat va jamiyat hayotida amaliy faoliyat mezoniga aylantirishimiz zarur. Ayniqsa, yoshlarimizga Asosiy Qonunimizning mazmun-mohiyatini chuqur o'rgatish, ularni konstitutsiyaviy qadriyatlar asosida yuksak ongli va vatanparvar fuqarolar, siyosiy tafakkur va huquqiy madaniyat egarlari etib tarbiyalash oldimizda turgan g'oyat muhim vazifadir.

Faqat Konstitutsiya va qonunlarimizga chuqur hurmat, puxta huquqiy bilim va amaliy tajriba asosidagina biz davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etib, Vatan va xalq oldidagi farzandlik burchimizni sharafla bilan ado eta olamiz. Shundagina Bosh qomusimizning hayotbaxsh kuchi, bunyodkorlik salohiyati amalida yanada yorqin namoyon bo'ladi.

Barchamiz uchun milliy mustaqilligimiz, g'urur va iftixorimiz timsoli bo'lgan Konstitutsiyamiz sharaflanadigan ushbu quvonchli ayyom munosabati bilan sizlarni yana bir bor chin dildan tabriklayman.

Siz, aziz yurtdoshlarimga sihat-salomatlik, baxt va omad, oilalarimgizga tinchlik-totuvlik va farovonlik tilayman.

Konstitutsiyamiz va barcha yutuqlarimizning ijodkori bo'lgan mard va olijanob xalqimiz doimo omon bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

INSONPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 33 yilligi munosabati bilan davlatimiz tomonidan olib borilayotgan insonparvarlik siyosatining amaliy tasdig'i sifatida “Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida”gi Farmonni imzoladi.

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini o'tayotgan hamda qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan **615** nafar shaxs afv etildi.

Afv etilgan shaxslarning **220** nafari asosiy jazodan to'liq ozod etildi, **123** nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, **97** nafari ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, **175** nafar shaxslarga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

Afv etilganlarning **9** nafari chet el fuqarolari, **29** nafari ayol, **23** nafari 60 yoshdan oshgan erkaklar, **264** nafari yoshlar (shulardan, **2** nafari voyaga yetmaganlar) hamda **9** nafari taqbiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Farmon ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag'riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ullanishlari, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yib, jamiyatda munosib o'rin topishlari uchun ularga ko'mak berish bo'yicha mas'ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

O'zA.

Bugun — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

BARQAROR TARAQQIYOT VA ORZU-INTILISHLAR IFODASI

Har bir mustaqil davlat hayotida Konstitutsiya eng oliy huquqiy hujjat sifatida alohida o'rin tutadi. U mamlakat taraqqiyotining huquqiy asosini belgilabgina qolmay, xalqning orzu-intilishlari, qadriyatlar va kelajakka bo'lgan ishonchini o'zida mujassam etadi.

Konstitutsiya faqat huquqiy hujjat emas, balki xalqni birlashtiradigan, fuqarolarda Vatan taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini uyg'otadigan ma'naviy qadriyat hamdir. U har bir fuqaroning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda, qonunga hurmat ruhini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

1992-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqil davlat barpo etish yo'lida qo'yilgan qat'iy qadamlardan biri bo'lib, milliy huquqiy tizimning mustahkam poydevori bo'ldi. U demokratik tamoyillarga asoslangan, inson huquq va erkinliklari ustuvor deb e'tirof etilgan, qonun ustuvorligi ta'minlangan davlat barpo etishga xizmat qildi.

Ayniqsa, 2023-yil 30-aprelda referendum orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi

Konstitutsiya xalqning davlat va jamiyat hayotini isloh etishga bo'lgan qat'iy ishonchini, faol fuqarolik pozitsiyasini yaqqol namoyon etdi. Bu referendum faqat huquqiy hujjatni yangilash emas, balki “Inson qadri uchun” degan g'oyani davlat siyosati darajasiga ko'targan, xalq va davlat o'rtasidagi ochiq muloqot samarasi bo'ldi.

Yangi tahrirdagi Bosh qomusimizda jamiyat taraqqiyoti va fuqarolar farovonligini ta'minlashga qaratilgan prinsipial yangilik sifatida “ijtimoiy davlat” tushunchasi mustahkamlandi. Bu tushuncha nafaqat davlatning mohiyatini belgilaydi, balki uning barcha faoliyati, ustuvor yo'nalishlari va aholiga nisbatan mas'uliyatini ilgari suruvchi qonunchilik asosini shakllantiradi.



VIJDON ERKINLIGI VA BAG'RIKENGLIK TAMOYILLARI USTUVOR

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatimiz mustaqilligi, demokratiya va qonun ustuvorligining asosiy kafolati hisoblanadi. Bosh qomusimizda inson hayoti, sha'ni, qadr-qimmatini, diniy erkinlik hamda boshqa huquqlar oliy qadriyat sifatida belgilangan.

Shu ma'noda, Konstitutsiyamiz jamiyatning barqaror rivojlanishi, adolat va ijtimoiy tenglikni ta'minlash, inson qadr-qimmatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda mamlakatimizda vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini

mustahkamlash, inson huquqlarini ta'minlash yuzasidan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda, qator muhim huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilinmoqda.

Bugun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan

jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini keng targ'ib etish maqsadida O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Temiziy, Bahouddin Naqshband kabi ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Konstitutsiya — davlat va jamiyatning huquqiy poydevori, barcha davlat organlari kabi

mamlakatimizdagi ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati uchun ham asosiy me'yoriy manba hisoblanadi. Ularning maqsad va vazifalari mamlakatda amal qilayotgan konstitutsiyaviy tamoyillar — ma'naviy barqarorlik, diniy bag'rikenglik, jamiyatda vijdon erkinligini ta'minlash, ilm-fan taraqqiyotini rag'batlantirish bilan uzviy bog'liq.

Xususan, Konstitutsiyaning

tegishli moddalari bilan yurtimizdagi barcha fuqarolar millati, tili, dini, e'tiqodi, jinsi, irqi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekanini (19-modd), har bir kishiga vijdon erkinligi kafolatlangani (35-modd), mamlakatda din va davlat ajratilgani (75-modd), tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros (61-modd) davlat tomonidan muhofaza qilinishi belgilab qo'yilgan.



BARQAROR TARAQQIYOT VA ORZU-INTILISHLAR IFODASI



Xalqaro huquqda ijtimoiy davlat — fuqarolarning munosib hayotini taʼminlash, kuchsiz qatlamlarni himoya qilish, teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan davlat modeli sifatida talqin qilinadi.

Oʻzbekiston Konstitutsiyasiga ushbu tushunchaning kiritilishi mamlakatda ijtimoiy adolat va insonparvarlik tamoyillarining eng muhim qadriyat sifatida qonun darajasida mustahkamlanganini anglatadi.

Konstitutsiyada inson huquqlarining “bevosita amal qilishi”, “tugʻilganidan boshlab kafolatlanishi” hamda “avval inson manfaatlari” tamoyilining joriy etilishi ijtimoiy davlat gʻoyasining asosiy koʻrinishidir. Mazkur prinsiplar davlat organlari va mansabdor shaxslar har bir qaror qabul qilishda inson qadrini ustuvor deb bilishini talab qiladi. Asosiy, ijtimoiy davlat inson huquqlari va erkinliklarini hayotda amalga oshirish boʻyicha huquqiy mexanizmlarni kengaytirdi.

Ijtimoiy davlat modeliga koʻra, sifatli taʼlim va tibbiy xizmat har bir inson uchun asosiy

huquqlardan hisoblanadi. Konstitutsiyada taʼlim olish huquqining kafolatlanishi, uning sifatini taʼminlash boʻyicha davlat majburiyatlarining belgilab qoʻyilishi hamda aholining barcha qatlamlari uchun tibbiy xizmatdan teng foydalanish imkoniyati ijtimoiy davlat gʻoyasining toʻla amaliy ifodasidir. Shu asosda mamlakatda taʼlim tizimini yaxshilash, tibbiy xizmatlarni raqamlashtirish va sifatli tibbiyotni ommabop qilish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, keyingi sakkiz yilda yurtimizda taʼlim va ilm-fan uchun xarajatlar 6 karra oshirildi, yuzlab yangi bogʻchalar, maktab, texnikum hamda oliygohlar qurildi, taʼlim va ilm dargohlarini zamon talablari asosida jihozlash, ustoz-murabbiylarning mehnatini munosib qadrlashga

qaratilgan yangi dasturlar qabul qilindi.

Bosh qomusning yangi tahririda inson huquq va erkinliklarini kafolatlash normalari yanada kengaytirildi. Inson shaʼni hamda qadr-qimmatini himoya qilish, shaxsiy daxlsizlikni taʼminlash, xususiy mulk daxlsizligini mustahkamlash davlat siyosatida ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida belgilab berildi. Qolaversa, jamiyatda ochiqchilik, hisobdorlik va tashabbuskorlikni rivojlantirish uchun munosib sharoit yaratmoqda.

Umuman, yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimizda taraqqiyotning yangi bosqichini belgilab berdi. Unda iqtisodiy islohotlarni, tadbirkorlik va investitsiya muhitini qoʻllab-quvvatlaydigan, barqaror rivojlanishni taʼminlash uchun

huquqiy kafolat beradigan normalar salmogʻi oshirildi. U Yangi Oʻzbekistonni barpo etish jarayonida davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun mustahkam asos boʻlib, inson qadrini oliy mezon sifatida belgilagan tarixiy ahamiyatga ega hujjatdir. Konstitutsiyamiz asrlar davomida xalqimizga xizmat qilib, adolat, qonun ustuvorligi va farovonlikka eltuvchi ishonchli dasturilamal boʻlib qoladi. Unda belgilangan tamoyillarga sodiq boʻlib yashash va ularni amaliyotga tatbiq etish esa har bir fuqaroning muqaddas burchi hisoblanadi.

Odiljon MAMATKARIMOV,
Oliy Majlis Senatining
Xalqaro munosabatlar,
tashqi iqtisodiy aloqalar,
xorijiy investitsiyalar va
turizm masalalari qoʻmitasi
raisi oʻrinbosari.

MADANIYAT RIVOJINING HUQUQIY KAFOLATI

Unda badiiy ijod va kitobxonlik madaniyatini faol qoʻllab-quvvatlash, madaniyat, sanʼat va jurnalistikani rivojlantirish uchun mablagʻ ajratish va yoʻnaltirish, shuningdek, Oʻzbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, Rassomlar ijodiy birlashmasi, Teatr arboblari uyushmasi va Jurnalistlar uyushmasini moddiy taʼminlash va ularning faoliyati bilan bogʻliq sarf-xarajatlarni moliyalashtirish singari muhim vazifalar belgilab berilgan.

Shuningdek, Prezidentimizning “Kino sanʼati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi qarorida milliy kino sanʼatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni tizimli davom ettirish, sohani davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, yurtimizda jahon tajribasi asosida kino ishlab chiqarishning samarali mexanizmlarini joriy qilish, zamonaviy kinosanoat infratuzilmasini yaratish va kinoprolat tizimini rivojlantirish maqsadida koʻplab vazifalar belgilab berilgan.

“Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bagʻishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Prezident qarori bilan esa “Tirik tarix” filmlar turkumini yaratish dasturi tasdiqlandi. Unga koʻra 21 ta badiiy va 33 ta badiiy-publististik filmlarni suratga olish rejalashtirilib, dastur ijrosini muvofiqlashtirish va nazorat qilib borish uchun milliy komissiya va milliy kengash faoliyati yoʻlga qoʻyildi.

Aytish joizki, soʻnggi yillarda kinematografiya sanʼatini taraqqiy ettirish yoʻlida amalga oshirilgan islohotlar jahon miqyosida oʻzining ijobiy natijasini berishga ulgurdi. Oʻzbekiston kinoijodkorlari tomonidan yaratilgan filmlar jahonning nufuzli anjumanlarida muvaffaqiyat bilan namoyish etilib, yuksak sovrinlarni ham qoʻlga kiritmoqda.

Shu bilan birga, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida davlat jamiyatning madaniy rivojlanishi haqida gʻamxoʻrlik qilishi bilan bogʻliq masala mustahkamlab qoʻyilgan.

Konstitutsiya — nafaqat huquqiy hujjat, balki mamlakat madaniy xilmaxilligini barpo etuvchi poydevor. Ijod erkinligini mustahkamlash, sanʼatni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash orqali fuqarolarga oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar ochadi, noyob madaniy merosini asrab-avaylashga koʻmaklashadi, madaniyat tushunchasi oliy qadriyatlardan biriga aylanadigan fuqarolik jamiyatini tarbiyalaydi. Bu konstitutsiyaviy kafolatlarni amalga oshirish mamlakatimiz taraqqiyoti, oʻzlikni saqlash, milliy ongini sanʼat orqali boyitish imkonini beradigan umumiy vazifamizdir.

Oydin ABDULLAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining
Fan, taʼlim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari
qoʻmitasi raisi oʻrinbosari.

Tashabbus

YANGIYERDA — KONSTITUTSIYA XIYOBONI

Yangiyer shahridagi Konstitutsiya xiyoboni bugungi kunda muhim maʼnaviy-maʼrifiy maskanga aylangan. Ushbu maskanda Konstitutsiya koʻchasining tashkil etilishi esa Asosiy Qonunimizni chuqur oʻrganish va keng targʻib qilish, aholi, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish yoʻlidagi ibratli tashabbus boʻldi.

Mazkur koʻchadagi “Konstitutsiya tarixi” burchagi Bosh qomusimizning yaratilish jarayoni, yillar davomida takomillashuvi va unda aks etgan asosiy tamoyillarni yoritib berishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, bu yerda Konstitutsiyani oʻqitishga oid oʻquv qoʻllanmalari va maxsus adabiyotlar koʻrgazmasi ham tashkil etilayotir.

— Konstitutsiya koʻchasida konstitutsiyaviy huquqlar boʻyicha adliya va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatiga bagʻishlangan axborot burchaklari ham mavjud, — deydi Sirdaryo viloyati adliya boshqarmasi masʼul xodimi Dilnoz Umurzqova. — Shu bilan birga, ushbu huquqiy-maʼrifiy maskanda viloyat adliya boshqarmasi, Yangiyer shahar hokimligi hamda Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi viloyat boʻlimi hamkorligida yoshlar ishtirokida huquqiy viktorinalar va boshqa shu kabi tadbirlar oʻtkazilmoqda.

Ahmadali ShERNAZAROV
(“Xalq soʻzi”).

AHOLI SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH YOʻLIDA

Mamlakatimiz Konstitutsiyasi qabul qilingan kun arafasida “Gulshanobod” mahalla fuqarolar yigʻinidagi 6-oilaviy poliklinika zamonaviy binosining foydalanishga topshirilgani bu hududda yashovchi aholiga bayram tuhfası boʻldi.

Buxoro tumanidagi mazkur shifo maskani endilikda 100 qatnov oʻrniga ega. Uni tamoman yangidan qurish uchun ssuda asosida 2 mlrd. 900 mln. soʻm mablagʻ sarflandi. Tibbiyot muassasasining moddiy-texnika bazasi ham mustahkamlandi. Shu maqsad uchun mahalliy byudjet hisobidan 103 mln. soʻm miqdorida mablagʻ ajratildi. Bu esa poliklinikaning tibbiy asbob-uskunalarga boʻlgan ehtiyojini qondirish imkonini berdi.

— Endilikda bu maskanda mahallamiz aholisi salomatligini sifatli koʻrikdan oʻtkazish, kasalliklarni erta aniqlash, davolanish uchun barcha imkoniyatlar mavjud, — deydi mehnat faxriysi A. Muhammadov. — Ayniqsa, biz, keksalar davlatimizning chekka qishloq joylarida ham mana shunday koʻrkam shifo maskanlari barpo etilayotganidan xursandmiz. Negaki, endi uzoq yoʻl bosib tuman markaziga borishga ehtiyoj yoʻq. Bu yerdagi tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasi ham yuqori. Ochiqlik, poliklinikaning shunday zamonaviy binosi va unda yaratilgan shart-sharoitlarni koʻrib, dardingni ham unutasan, kishi.

Istam IBROHIMOV
(“Xalq soʻzi”).

TAʼLIM — SAODAT KALITI

“Beshikdan to qabrgacha ilm izla” deydi dono xalqimiz. Chunki ilm porloq kelajak uchun zamin yaratadi. Bilimli kishilar Vatani istiqbolini belgilaydi, jamiyatga baxtli hayot sari yoʻl ochadi.

Fikr

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kim taʼlim olish huquqiga egaligi qatʼiy belgilab qoʻyilgani tom maʼnoda xalqimiz uchun saodat kalitidir. Bu har bir inson yaratilgan imkoniyatdan foydalanib, savodini chiqarishi, bilim olib, kamolot pillapoyalaridan asta-sekin odimlashi, oʻz koʻzlagan niyat-maqsadlariga erishishi mumkin degani.

Darhaqiqat, yurtimizda bepul umumiy oʻrta taʼlim va boshlangʻich professional taʼlim olish kafolatlangan. Bunda umumiy oʻrta taʼlimni egallash hamma uchun majburiy. Ushbu normaning eʼtiborli joyi shundaki, bu orqali har bir inson bolaligidan bepul umumiy oʻrta taʼlim oladi va

shu asosda keyingi hayot yoʻlini tuzadi. Besavodlikning oldini olayotgan hamda jamiyatga bilimli yoshlarni yetkazishda asos boʻlayotgan qonunlarimiz shu oʻrinda muhim ahamiyatga molik.

Eʼtiborli jihati, Bosh qomusimizda taʼlim tashkilotlarida alohida taʼlim ehtiyojlariga ega boʻlgan bolalar uchun inklyuziv taʼlim va tarbiya taʼminlanishi ham belgilangan boʻlib, bugun mamlakatimizda ushbu yoʻnalishga doir koʻplab sharoitlar yaratilmoqda. Nogironligi bor abituriyentlar uchun imtiyozlar berilayotgani, maktabga qatnab taʼlim ololmaydigan oʻquvchilar uchun oʻqituvchilar uylarga borib dars berayotgani soʻzimizning

tasdiqidir.

Bilamizki, dunyoning qator mamlakatlarida maktablar bepul emas. Albatta, taʼlim olish pullik boʻlsa, unga hammaning ham qurbi yetavermaydi. Natijada jamiyatning maʼlum bir qatlami “qora ishchi”ga aylanishga majbur.

Kechagidek esimda, maktab davrimizda huquq fanidan darslarni doim bepul taʼlim olishga oid modda bilan boshlardik. Uni koʻp tengdoshlarim qatori birinchi marotaba yod olar ekanman, magʻzini chaqmagandim. Oradan yillar oʻtib oliy taʼlimga qabul qilingach, umuman olganda, katta hayotga qadam qoʻygach uning naqadar muhimligini tushundim.

Maktabda olgan bilimlar, ustozlarimning taʼlim-tarbiyasi va saʼy-harakatim samarasi oʻloraq bundan 5 yil muqaddam Toshkent davlat yuridik universitetiga oʻqishga qabul qilindim. Oʻtgan

yili esa bakalavr bosqichini tamomlab, ushbu oliygohning magistratura talabasiga aylandim. Shu oʻrinda ayni kunlardagi quvonchli xabarni ham aytib oʻtmoqchiman, endilikda men universitetning doktorantura bosqichi ilmiy izlanuvchisiman.

Qayd etish joizki, agar Konstitutsiyamizda taʼlim olish huquqi qatʼiy mustahkamlab qoʻyilmaganida hozir men erishayotgan yutuqlar xayoliy bir gap, ushalmagan armon boʻlib qolardi. Jamiyatimizda esa savodsizlar soni keskin oshib ketardi. Oʻzbekistonimiz rivoji va uning istiqboli uchun hissa qoʻshadigan kadrlarni tayyorlashda aynan mana shu norma asos boʻlib xizmat qilayotgani ayni haqiqat.

Mirjalol
RAHMONALIEV,
Toshkent davlat yuridik
universiteti tayanch
doktoranti.

VIJDON ERKINLIGI VA BAGʻRIKENGLIK TAMOVILLARI USTUVOR

Aynan mazkur qoidalar Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyati uchun ham asosiy tamoyil boʻlib, buyuk allomalarimiz merosini ilmiy tadqiq etish, yosh avlodni millatlararo va dinlararo bagʻrikenglik, oʻzaro hurmat kabi asl qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim asos boʻlib xizmat qilmoqda.

Davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixi davomida oʻlkamiz turli madaniyat, sivilizatsiyalar va dinlar oʻzaro tutashgan chorraha boʻlib kelgan. Bu zaminda qadimdan buddaviylik, nasroniylik, islom va boshqa dinlar vakillari bir-birlari bilan totuv yashagan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, bagʻrikenglik, oʻzaro hurmat va doʻstlik gʻoyalari xalqimizning tafakkuriga chuqur singib ketgan qadriyatlar hisoblanadi.

Konstitutsiyamizda ham diniy bagʻrikenglik tamoyili nafaqat huquqiy meʼyor sifatida, balki koʻp millatli

va koʻp konfessiyali xalqimizning tafakkur tarzi, davlatning muhim strategik maqsadi sifatida namoyon boʻladi. Unda jamiyatda turli eʼtiqod vakillariga nisbatan hurmat-ehtirom

“Konstitutsiyaning tegishli moddalari bilan yurtimizdagi barcha fuqarolar millati, tili, dini, eʼtiqodi, jinsi, irqi, ijtimoiy mavqeidan qatʼi nazar qonun oldida teng ekani (19-modda), har bir kishiga vijdon erkinligi kafolatlangani (35-modda), mamlakatda din va davlat ajratilgani (75-modda), tarixiy, maʼnaviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros (61-modda) davlat tomonidan muhofaza qilinishi belgilab qoʻyilgan.”

bilan munosabatda boʻlish, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish kabi masalalar qatʼiy belgilab qoʻyilgan.

Mamlakatimizda ilm-fan taraqqiyoti davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan boʻlib, markazning taʼlim muassasalari uchun oʻquv-uslubiy dasturlar,

Bunda markazimizning ilmiy dasturlari, tadqiqot mavzulari va strategik rejalari Bosh qomusimizda belgilangan maqsadlar bilan uygʻun holda shakllantirilgan.

Bugungi kunda yurtimizda sohada amalga oshirilayotgan

islohotlar natijasida 16 ta konfessiya, 2 mingdan ziyod diniy tashkilotlar faoliyat yib bormoqda. Ayni vaqtda har bir diniy tashkilot qonunlar doirasida erkin faoliyat yuritishi mumkin. Bunday yondashuv koʻp konfessiyali jamiyatlarda ijtimoiy-maʼnaviy barqarorlik va totuvlikni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Mazkur ishlarning amaliy ifodasini mamlakatimizda turli millat va din vakillari oʻzaro tinch-totuv, bagʻrikenglik va birdamlik muhitida inoq hayot kechirayotgani, fuqarolarning oʻz dinlariga emin-erkin ibodat qilishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar va qulayliklar misolida ham koʻrishimiz mumkin.

Shu bilan birga, koʻp millatli mamlakatimizning farovonligini taʼminlash maqsadida Konstitutsiyamizda milliy, irqiy hamda diniy adovat tuygʻularini tarqatishning qatʼiyan taqiqlanishi (71-modda)

kabi fundamental normalar oʻz aksini topgan.

Ajdodlarimiz ilmiy merosi asosida jamiyatda ijtimoiy-maʼnaviy muhit barqarorligini saqlash, yoshlarni yet gʻoyalar taʼsiridan asrashga qaratilgan strategik ahamiyatga ega loyiha va tashabbuslarni ishlab chiqish orqali mamlakatimizdagi ilmiy-tadqiqot markazlari bu vazifani amalga oshirishga munosib hissa qoʻshmoqda.

Demak, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi nafaqat allomalarimiz merosini tadqiq etadi, balki Konstitutsiyada belgilangan vijdon erkinligi, millatlararo totuvlik, dinlararo bagʻrikenglik, maʼnaviy merosini asrash va ilm-fan taraqqiyoti kabi qoidalarni hayotga tatbiq etishda muhim ilmiy-maʼrifiy muassasa sifatida xizmat qiladi.

Komiljon SHERMUHAMEDOV,
Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-
tadqiqot markazi direktori.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 33 yilligiga bagʻishlangan bayram tadbiri boʻlib oʻtdi.

«JAMIYAT TANASIDAGI SARATON»

“Qulf ochar kalitni topish oson, qalbnı ochar kalitni topish qiyin”, deyidilar. Shu ma'noda, korruptsiya degan illatning ildizi qalbdı, ongda bo'lgani uchun uning kalitini ma'rifatdan izlash lozim.

Barchamiz halollikni kuchaytirish, adolatni mustahkamlash haqida ko'p gapiramiz. Bu – zamon talabi, odamlar umidi. Shuning uchun Prezidentimiz davlat rahbari sifatidagi faoliyatining ilk davridanoq

har bir insonni – u xoh rahbar, xoh oddiy fuqaro bo'lsin, “halollik vaksinasi” bilan emlash tashabbusini ilgari surib kelmogda. Bu yo'lda oiladagi, ta'lim muassasalaridagi muhitni yaxshilash, jamiyatda adolat tamoyillarini qaror toptirish bo'yicha qator sa'y-harakatlar qilinyapti.

Haqiqatan ham, inson ongi o'zgarmas ekan, jamiyat o'zgarmaydi. Jamiyat o'zgarmasa, qancha qonun qabul qilmaylik, natija bermaydi.

qo'shqo'llab kishan kiydirishga oshufta bo'ladi. Bu xavf esa korruptsioner hayotida rohat-farog'at o'rnini besaranjom kunlar va hadik-xavotirli tunlar egallashiga olib boradi. Bu – ichki jazo. U shu qadar muqarrarki, hech kim qochib qutulolmaydi.

Dono xalqimiz bejiz “Non o'g'irlagan bir kun quvonadi, lek bir umr qiynaladi”, demaydi. Mana shu naql har bir rahbar, har bir xodim, har bir bola miyasiga chuqur singsa – qonunga ehtiyoj qolmaydi, adolat o'z-o'zidan ustuvor bo'lib boradi.

O'zlikni isloh etishga da'vat

Islahotlar qanchalik jadal kechmasin, odamlar davlatga ishonmasa, samaraga erishish qiyin. Davlatga ishonch – bu nafaqat siyosiy, balki ma'naviy qudrat. U davlatning salohiyatini, kuchini namoyon qiladi. Korruptsiyaning jilovlanishi – ana shu kuchdan, qudratdan nishona.

Prezidentimiz tomonidan Yangi O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan tizimli ishlar, avvalo, odamlarning davlatga ishonchini oshirish, ertangi kunga umidini mustahkamlashga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

Jumladan, korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun qabul qilinib, maxsus vakolatli agentlik tashkil etildi. Hukumat faoliyatining ochiq va oshkorligini ta'minlash hamda mas'uliyatini oshirish, byurokreatiyani kamaytirish va davlat xizmatlarini soddalashtirish, korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlar amaliyotga keng joriy etildi. Xususan, barcha davlat idoralarda kompaniyas va samaradorlikni baholash reyting tizimlari yo'lga qo'yildi. Davlat xaridlari to'liq raqamlashtirildi.

Davlatimiz rahbarining “*Hammamiz yagona kuch bo'lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san'at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman butun jamoatchilik birlashib, korruptsiyaga “jamiyat tanasidagi saraton” sifatida qarashi kerak*”, degan so'zlari har bir insonni, avvalo, o'zini isloh qilishga qaratilgan da'vatdir.

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi jamoasi ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlarga kamarbasta bo'lishni, xususan, jamiyatda sog'lom

Shundagina jamiyatimizda adolat barqaror bo'ladi, kelajak nasl halol mehnatga suyanagan, toza muhitda shakllangan avlod bo'lib yetishadi. Yoshlarimiz ongida insof va adolat mustahkam bo'lsa, hech qanday illat ularni yenga olmaydi. Bu yo'l – og'ir, ammo sharaflidir.

e'tiqod va pok axloqni targ'ib etishni, xalqimizning ma'naviy immunitetini mustahkamlashni o'z oldiga qat'iy vazifa qilib belgilab olgan.

Korruptsiyaga qarshi kurashda eng katta yordam – adolat haqidagi ilmiy, axloqiy va diniy bilimlarni xalq ongiga yetkazish, yoshlarda halollikni eng oliy qadriyatlar darajasiga ko'tarish, boylik orttirishning noqonuniy yo'llariga murosalsi munosabatni tag-tomiri bilan yo'qtirish orqali amalga oshirilishini to'la anglab, bu boradagi ishlarga ilmiy tadqiqotlar, ma'rifiy loyihalar, ko'plab dasturlar yordamida baholi qudrat o'z hissamizni qo'shib kelmogdamiz.

Og'ir, ammo sharafli yo'l

Eng chuqur jar – inson qalbining qorong'i burchagidir. Korruptsiya ana shu zulmatda paydo bo'ladi. Qonun uni to'xtatishi mumkin, lekin bu faqat vaqtinchalik chora bo'ladi. Chunki “o'rgangan ko'ngil o'tansa, qo'ymas”. Odamzod yoqimili narsaga tez ko'nikadi. Ishlamay tishlash, belni og'ritmasdan boylik orttirish mayli ko'ngilning eng qora tubiga o'mashib olgandan keyin uni faqat jazo bilan daf etish mushkul. Chunki ko'ngil kirlanib bo'lgan.

Shu bois bu illatni tamomila yo'q qila oladigan kuch ma'rifatdir. Faqat ma'rifatgina qalbga ziyo olib kirib, ko'ngildagi aldatchi hoyu havasni parchalashga qodir.

Bugun korruptsiyaga qarshi kurashish – iqtisodiy yo huquqiy talab emas, balki ma'naviy ehtiyoj, milliy xavfsizlik sharti, ijtimoiy ishonch masalasiga aylangan. Qonunga xilof ravishda topilgan pullar – shunchaki oddiy jinoyat yoki ro'yxatlardagi raqamlar emas, u – tarbiya, odat, muhit va e'tiqodning yuzasiga chiqib qolgan qora dog'dir.

Shuning uchun korruptsiyaga qarshi kurash – avvalo, ma'rifat bilan bosqichma-bosqich, izchil ish olib borishni talab qiladi.

Alloh taolo Ra'd surasida: “*Aniqlik, to biron qavm o'zlarini o'zgartirmaganlaricha, Alloh ularning ahvolini o'zgartirmas*”, deb marhamat qiladi. Ya'ni o'zgarish, avvalo, ich-ichimizdan boshlanadi.

Bugun Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarda korruptsiyaga qarshi kurashga alohida e'tibor qaratilayotgan bo'lsa-da, bu ish faqat davlatning kuchi bilan amalga oshmaydi. Bu yo'lda davlat, jamiyat, ilm ahli, o'ta-ona, o'qituvchi, mahalla-ko'y ham – hamma birdam bo'lib, jips bo'lib ishlashi kerak.



xabarlari

Erkin kurash: mardlik va shijoat ayyomi

Poytaxtimizdagi “Olimpiya shaharchasi”da erkin kurash bo'yicha O'zbekiston chempionati bo'lib o'tmoqda. Unda mamlakatimizning barcha hududidan tashrif buyurgan sportchilar qatnashyapti.



Dastlabki kun erkaklar o'rtasida 5 ta vazn toifasida g'olib va sovrindorlar aniqlab olindi. Unda Asadbek Saidto'rayev (-57 kg.), Sanjarbek Rustambekov (-65 kg.), Begijon Qo'ldoshev (-74 kg.), Bobur Islomov (-86 kg.) va Otabek Nazirboyev (-97 kg.) vazn toifalarida chempionlikni qo'lga kiritdi.

Bellashuvlar qizg'in davom etmoqda.

Vakillarimizning shaxdam odimlari

Dubay shahrida o'tkazilayotgan boks bo'yicha (IBA) jahon chempionatining navbatdagi kunida terma jamoamizning 3 nafar vakili muvaffaqiyatli qatnashdi.



Ushbu nufuzli musobaqada vazni 75 kilogrammgacha bo'lgan bokschimiz Fazliddin Erkinboyev ilk jangini qirg'izistonlik Sirgak Abdijapar uuluga qarshi o'tkazib, 5:0 hisobida g'alaba qozondi. Hamyurtimiz keyingi davrada amanistonlik Vaxtang Arutyunyanga qarshi ringga ko'tariladi.

JCHning 60 kilogrammgacha vazn toifasida Abdumalik Halokov va ekvadorlik Kevin Moskuyera o'rtasida bo'lib o'tishi kerak bo'lgan bahs raqibning vazn me'yorlarini bajara olmagani sabab o'tkazilmadi va A. Halokov g'olib deb topildi. U keyingi bosqichda Ispaniya yoki Esvatini bokschilaridan biriga qarshi ringga ko'tariladi.

Vazni 54 kilogrammgacha bo'lgan charm qo'lqop ustalari orasida ishtirok etayotgan yana bir vakilimiz Asilbek Jalilov turkiyalik Sadai Axskaliga qarshi ringga ko'tarildi va raqibini 5:0 hisobida mag'lub etdi.

“Samodan baland” xalqaro turniri – iste'dodlar maydoni

Toshkent shahridagi Gimnastika markazida trampindan sakrash bo'yicha o'tkazilgan “Samodan baland” turniri qizg'in kechdi.



Yosh sportchilar uchun katta sport bayramini tuhfa etgan musobaqada Belarus, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistondan 150 nafarga yaqin eng sara atletlar o'z mahoratlarini namoyish etdi.

Turnirning ikki kunlik murosasiz bahslari davomida tomoshabinlar iste'dodli tramplichilarning betakror chiqishlariga guvoh bo'ldi. Qizg'in bellashuvlarda O'zbekiston terma jamoasi a'zolari 3 ta oltin, 2 ta kumush va 2 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi.

Yakunda g'olib hamda sovrindorlar medal, diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

“Xalq so'zi”.

SANOAT QURILISH BANK

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA BARCHA BIRGALIKDA HARAKAT QILISHI ZARUR

9-dekabr – Xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan “O'zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan “Ochiq eshiklar kuni” o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, Markaziy bank va Bosh prokuratura bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirda boshqa tegishli idoralar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

“Ochiq eshiklar kuni”

Ta'kidlanganidek, Prezidentimizning 2024-yil 5-martdagi O'zbekiston Respublikasi korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashi yig'ilishida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida davlat organlarida hisobdorlik va ochiqlikni oshirish, tizimli profilaktika choralarini kengaytirish yuzasidan izchil ishlar olib borilmoqda.

“O'zsanoatqurilishbank”

tomonidan ham korruptsiyaning oldini olish, xodimlar o'rtasida korporativ madaniyatni shakllantirish hamda faoliyatning har bir bosqichida shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tadbirda bankning ISO 37001:2016 xalqaro standart talablariga muvofiq korruptsiyaga qarshi menejment tizimi bo'yicha qayta sertifikatsiyadan

muvaffaqiyatli o'tgani aytili. Mazkur tizim xatarlar xavfini kamaytirish, manfaatdor tomonlar uchun ishonchli va ochiq muhitni ta'minlash hamda bankni korruptsiyaning salbiy ta'sirlaridan himoyalashga xizmat qilayotgani ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbarining shu yil 21-apreldagi “Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil

etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmonida nazarda tutilgan masalalar doirasida bank rahbariyati va mas'ul xodimlari malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, 100 nafar rahbar xodim “Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish” mavzuidagi 24 soatlik kurslarda, 28 nafar mutaxassis esa korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini samarali tashkil etish bo'yicha 36 soatlik o'quv dasturlarida qatnashdi. Qo'shimcha ravishda, 37 nafar xodim ISO 37001:2016 standart sertifikatiga ega bo'ldi.

Joriy yil davomida Bosh bank va tarmoq bo'limlaridan

2700 dan ziyod xodimlar korruptsiyaga qarshi boshqaruv tizimi, zimmadagi vazifalarni bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar va ularni baholash usullari bo'yicha o'qitildi. Shu bilan birga, 1806 nafar xodim o'rtasida bilim darajasini baholash maqsadida test sinovlari o'tkazildi.

Bankning korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan 2025-yil yanvar – oktabr oylari davomida 14 ta xizmat tekshiruvi va 43 ta monitoring tadbiri amalga oshirildi. Tekshiruvlar natijasida xodimlar xatti-harakatlari ortidan bank manfaatlariga

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 10 379 nusxada bosildi. Hajmi – 3 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.50 Topshirildi — 02.00

1 2 3 4 5 6

Seul shahrida O'zbekiston – Janubiy Koreya oliy ta'lim muassasalari rektorlarining II forumi tashkil etildi.